

BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA KREATIVLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Komilova Nilufar Nizomovna

Axborot texnologiyalari va menejment universiteti

1- bosqich magistranti

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini oshirish yo'llari va usullari ko'rsatib o'tilgan bo'lib, har bir mahoratli o'qituvchi faoliyati davomida bolalarga bilim berishda ularning dunyoqarashini shakllantirishda, o'z fikriga, o'z maqsadlariga ega barkamol shaxslarni tarbiyalashda kreativ yondosha olishi lozimdir. Buning uchun o'qituvchilar o'z ustida muntazam ishlashi, yangi zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lishi va o'quvchilarni tarbiyalashda, ularning bilim darajasini rivojlantirishda bu usullardan foydalana olishi juda muhimdir.

Kalit so'zlar: kreative, ijodkor, zamonaviy ta'lim, kreativ yondoshuv, innovatsion g'oyalar, dunyoqarash, AJIL texnologiyasi

Аннотация: В статье показаны пути и методы повышения творческих качеств учителей начальных классов в современной образовательной среде. Каждый опытный учитель должен уметь творчески подходить к обучению детей, формировать их мировоззрение и воспитывать всесторонне развитых личностей со своими собственными мнениями и целями. Для этого очень важно, чтобы педагоги регулярно работали над собой, были в курсе новых современных технологий, умели использовать эти методы в обучении учащихся и повышении уровня их знаний.

Ключевые слова: креатив, творческий, современное образование, креативный подход, инновационные идеи, мировоззрение, технология AJIL

Abstract: The article shows the ways and methods of improving the creative qualities of primary school teachers in a modern educational environment. Every skilled teacher should be able to use a creative approach to educating children, forming their worldview, and educating well-rounded individuals with their own opinions and goals. For this, it is very important for teachers to work on themselves regularly, be aware of new modern technologies, and be able to use these methods in educating students and developing their level of knowledge.

Keywords: creative, creative, modern education, creative approach, innovative ideas, worldview, AJIL technology

Kirish

Zamonaviy ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli nihoyatda muhim sanaladi. Ayniqsa, ushbu bosqichda o'quvchilarning dunyoqarashi shakllanadi, o'quvga bo'lgan qiziqishi ortadi va shaxsiy fazilatlari rivojlanadi. Bu esa o'qituvchidan nafaqat pedagogik bilim va ko'nikmalarni, balki ijodiy yondashuvni ham talab etadi. Kreativ o'qituvchi dars jarayonini qiziqarli, interaktiv va samarali tashkil etib, bolalarda mustahkam bilim va ijobiy munosabat shakllantiradi. Shu bois, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativligini oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Asosiy qism

Ta'limning zamonaviy globallashuv va axborotlashuv sharoitida rivojlanishi va takomillashuvini innovatsiyalarning turli shakllarini tadqiq etmasdan, mutaxassisni nimaga va qanday tayyorlashga bir qator yondashuv va munosabatlarni tamoyillar asosida ko'rib chiqmasdan amalga oshirish mumkin emas. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'no mazmuni tushunib olishi talab etiladi. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui"dir. Gardner esa o'z tadqiqotlarida "kreativlik–shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lim amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim" deb ta'kidlaydi. Olimning yondoshuviga ko'ra kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir. Har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'z mutaxassisligini chuqur bilishi, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishi, uslubiy modellarni to'g'ri tanlash qobiliyati, ta'lim jarayonidagi ta'sir mazmuni va usullarini loyihalashni bilishi zarur. Shundagina yetik mutaxassis bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kreativlik sifatlarini amalga oshirishda jamoaning o'zini beqiyos. Bunda o'qituvchi o'quvchilar jamoasini ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadni ko'zda tutuvchi, birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi, umumiy saylab qo'yilgan organiga ega bo'lgan, mustahkamlik, umumiy javobgarlik bilan ajralib turuvchi, barcha a'zolarimning huquq va majburiyatlarda tengligi sharoitida majburiy aloqadorlikka ega bo'lgan o'quvchilar guruhini tashkil qilishda ijodiy yondashgan holda amalga oshirsa ko'zlagan maqsadga erishiladi.

“Kreativlik otasi” nomi bilan mashhur Pol Torrans to’rtta kreativlik konikmasini aniqlagan. Uning olib borgan tadqiqotlari shundan dalolat beradiki, mazkur kreativ ko’nikmalarni shakllantirish va ularni baholash mumkun:

1. **Ravonlik.** Ko’plab g’oyalarni o’ylab topish ko’nikmasi ko’p degan so’zga asoslanadi.

2. **Moslashuvchanlik.** Turli g’oyalarni o’ylab topish ko’nikmasi o’zgartirish degan so’zga asoslanadi.

3. **O’ziga xoslik.** Boshqalarga o’xshamagan, ajralib turuvchi g’oyani o’ylab topish ko’nikmasi noyob degan so’zga asoslanadi.

4. **Yaratuvchanlik.** G’oyalarni kengaytirish ko’nikmasi qo’shish degan so’zga asoslanadi. Kreativlik darslarida pedagoglardan ajoyib g’oyalarni o’ylab topish (o’ziga xoslik); ularni kengaytirish (ishlab chiqish); yoki boshqa g’oyalar bilan solishtirish va ulardagi bog’liqlikni topish (moslashuvchanlik) talab etilganda, mazkur ko’nikmalar bir-biri bilan kesishadi.

O’qituvchining ijodkorligini nomoyon qiladigan jarayon bu- darsdir. Dars bevosita o’qituvchi rahbarligida aniq belgilangan vaqt davomida muayyan o’quvchilar guruhi bilan olib boriladigan ta’lim jarayonining asosiy shakli sanaladi. Darsda har bir o’quvchi xususiyatlarini hisobga olish, barcha o’quvchilarning mashg’ulot jarayonida o’rganilayotgan fan asoslarini egallab olishlari, ularning idrok etish qobiliyatlari va ma’naviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratiladi. Boshlang’ich sinflarda o’qituvchi dars jarayonida o’qituvchi shaxsiga xos bo’lgan kreativlik sifatleri: Shu orqali boshlang’ich sinf o’qituvchisida dars jarayonida kreativ sifatlarini rivojlantirishning samarali yo’llaridan foydalansa maqsadlidir.

O’qituvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmasini samarali shakllantirish maqsadida o’quvchilarga ularni fikrlashga undovchi savollar tarkibida zarur so’zlarning bo’lishiga e’tibor qaratiladi. Suvning tabiatda aylanish hodisasini ta’riflab bering o’rniga yog’inlarning (yomg’ir, qor, shudring, do’l va boshqalar) paydo bo’lishi algoritmini(ketma- ketligini) tuzib chiqing. Bunda o’qituvchi har bir jarayonning “ bog’liqlikni topishi , “ fikrni mantiqan bayon eting”, “ tasavvur qiling ” kabi fikrlardan foydalanish orqali unda kreativ fikrlash ko’nikmasi namoyon bo’ladi. Boshlang’ich sinf oqituvchilari o’quvchilarda kreativ fikrlash ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda ko’rsatmali metod va usullardan foydalansa oldiqa qo’ygan maqsadga erishadi.

O’quvchilarda muammoni yechish va innovatsiyon g’oyalarni ilgari surish jarayonida kreativ va ijodiy fikrlashga urg’u berishi lozim . Suvning tabiatda aylanishi va yog’inlarning paydo bo’lishi o’rtasidagi bog’liqlikni topish”. Topshiriqni bajarar ekan, o’quvchilar tabiatda suvning aylanishi va yog’inlarning paydo bo’lishi tizimi bilan bog’liq turli muammolarni tahlil qilib, xulosaga keladi. Natijada ushbu jarayonda ko’p tamonlama

fikrlash, mushohada yuritish ro'y beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda ta'limning yordamchi shakli to'garaklarda foydalanish maqsadlidir. Fan to'garaklar yo'nalishi, mazmuni, ish metodi, o'qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi. Ular o'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Bu bilan o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini ham shakllantiradi. Chunki to'garak ijodiy yondoshgan holda tashkil qilinadi. To'garak rahbari (boshlang'ich sinf o'qituvchisi) to'garak mashg'ulotida samaradorlikka erishish uchun to'garak mashg'uloti ishlanmasida ijodkorlikka alohida e'tibor qaratishi, uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tuzishi lozim. Misol uchun to'garaklarni tashkil etishda boshlang'ich sinf o'qituvchisi "AJIL" ("Amaliy jamoaviy ijodiy loyihalar") strategiyasi o'quvchilarda ijodiy faoliyat ko'nikma va malakalarini, jamoaviy ijodiy ishlarni tashkil etish ishlarni tashkil etish tashkil etish ko'nikmalarini shakllantirish, jamoaviy ijodiy loyiha (ish)larning shakllari to'g'risidagi tushunchani hosil qilishga ko'maklashishga xizmat qiladi. "Ajil" texnologiyasini to'garak jarayonida "Men – jamoaviy ish tashkilotchisiman" mavzusidagi blits-o'yin o'tkazilgandan so'ng qo'llash maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'qituvchining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirishda yana bir jihat ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'rni juda kattadir. Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish ham pedagog faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. SHunday ekan, boshlang'ich sinf o'qituvchisi ma'naviy-ma'rifiy ishlarini tashkil etishga ham ijodiy yondasha olishi zarur. Bunda u quyidagilarga e'tiborni qaratishi lozim:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsadga muvofiq, izchil, uzluksiz va tizimli tashkil etish; - o'quv yili uchun puxta asoslangan ma'naviy-ma'rifiy ishlar rejasini ishlab chiqishi;

- rejadan talabalarining ehtiyoj va qiziqishlariga mos keladigan hamda dolzarb mavzulardagi muammolarga bag'ishlangan tadbirlarning o'rin olishiga erishish;

- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning reja uchun emas, balki talabalarining ehtiyojlarini qondirish, ularni shaxs va mutaxassis sifatida shakllanishlarini ta'minlash maqsadida tashkil etish;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni ularning yo'nalishi, mazmuni, xarakteriga, ko'lam va xususiyatlariga ko'ra turli shakllardan interfaollik asosida tashkil etilishiga erishish;

- har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirning aniq maqsad asosida tashkil etilishi va albatta, kutilgan natijani kafolatlay olishini ta'minlash;

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va o'tkazishda akademik guruhning barcha talabalari birdek faol ishtirok etishlariga erishish.

Kreativlik — bu yangicha fikrlash, noodatiy yondashuvlar topish va mavjud muammolarga o'ziga xos echimlar taklif eta olish qobiliyatidir. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun bu sifat ayniqsa muhim, chunki kichik yoshdagi o'quvchilarning

e’tiborini jalb etish va ularni faol dars jarayoniga jalb qilishda innovatsion metodlarga ehtiyoj katta bo’ladi. Kreativ o’qituvchi oddiy mavzuni ham o’quvchi uchun qiziqarli sarguzashtga aylantira oladi.

Boshlang’ich sinfda o’yinlar, rolly sahna ko’rinishlari, chizmalar, qo’shiq va raqs elementlari, ertaklar orqali dars o’tish samarali natijalar beradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar — interaktiv doska, video materiallar, elektron testlar — ham darsni boyitadi. Bunday vositalar orqali o’quvchilarni darsga jalb qilish osonlashadi, o’qituvchi esa yangi usullarni qo’llash orqali ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Kreativlik — bu tug’mas emas, o’z ustida ishlash orqali shakllantiriladigan sifatdir. O’qituvchilar uchun doimiy malaka oshirish kurslari, seminar va treninglar muhim ahamiyatga ega. Tajribali ustozlar bilan fikr almashish, innovatsion metodikalarni o’rganish orqali o’qituvchi o’z ish uslubini takomillashtiradi

Ijodkor o’qituvchi o’quvchilarda ham ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Darslar jonli va qiziqarli bo’lsa, o’quvchilar mustaqil fikrlaydi, savol berishga, muammolarni hal qilishga o’rganadi. Bu esa ularning ijtimoiy faolligini va bilimga bo’lgan mehrini oshiradi.

Xulosa

Boshlang’ich sinf o’qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, yo’lboshchi va ilhomlantiruvchi shaxsdir. Uning kreativligi o’quvchilarning har tomonlama rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Shu bois har bir o’qituvchi o’z ustida doimiy ishlashi, yangiliklarga ochiq bo’lishi va dars jarayonida ijodiy yondashuvlarni qo’llashi kerak. Boshlang’ich sinf o’qituvchilarida kreativ fikrlash ko’nikmasini shakllantirish o’qituvchidan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda noan’anaviy usullardan keng foydalangan holda amalga oshirishi talab qilinadi. O’qituvchida kreativni rivojlantirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. O’qituvchida kreativni rivojlantirishda turli xil interfaol metodlarni bilishi va o’zing faoliyati davomida samarali foydalanishi lozim. Boshlang’ich sinf o’qituvchisi o’z-o’zidan ijodkor bo’lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o’qib organish, o’z ustida tinimsiz ishlash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har bir o’qituvchi ijodiy o’z-o’zini tarbiyalash olishi zarur. Bunda o’zini o’ziga xos ijodiy shaxs sifatida anglash, uni yanada takomillashtirish va moslashtirishni talab qiladigan kasbiy va shaxsiy fazilatlarini aniqlash, shuningdek uzluksiz tizimda o’z-o’zini takomillashtirishning uzoq muddatli dasturini ishlab chiqish o’z-o’zini tarbiyalash demakdir. Zero, bugungi kreativ o’qituvchi ertangi zamonaviy jamiyatni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muslimov N.A. “Bo’lajak kasb ta’lim o’qituvchilarini kasbiy shakllantirish” /Monografiya. – T.: Fan, 2004.
2. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o’qituvchilarining kasbiy kompotentligini shakllantirish texnologiyasi” /Monografiya. –T.: ”Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Tolipov O’.Q., Usmonboyeva M. ”Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot”. – T.: “Fan”, 2005.
5. Sayidahmedov N.”Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya”. – T.: 2003.
6. Suyunovna Q. S., Nomozovna R. G. BOSHLANGICH SINFD A IQTIDORLI OQUVCHILARNING SHAKLLANISHIDA MATEMATIK MANTIQUIY MASALALARNING O’RNI //JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 69-74.
- 7.Nomozovna, R. G. (2025). BOSHLANGICH TA’LIMNING TARBIYA DARSLARIDA SAIDRASUL AZIZIYNING “USTODI AVVAL” ASARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI. *TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATIONS G ‘OYALAR*, 1(7), 609-613.
8. Raxmonova, G. (2025). USING THE PEDAGOGICAL HERITAGE OF MAKHMUDHOJA BEHBUDI, THE MANIFESTATION OF THE IDEAS OF NATIONAL MODERNISM, IN THE EDUCATION OF YOUNG PEOPLE. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(1), 1394-1397.